

**YOSHLAR ONGIDA VATANGA BO'LGAN MEHR-MUHABBAT
HAMDA YUKSAK VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISHNING
IJTIMOIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15377632>

Umarov Ismoiljon Olimjonovich

Farg'ona davlat universiteti

harbiy ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi

tel. +998907854400

icmoiljonumarov915@gmail.com

ORCID 0009-0008-9065-9445

Qodirov Samandar Bobir o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Harbiy ta'lim fakulteti talabasi

qodirovsamandar503@gmail.com

+998959012203

ORCID ID0009-0002-3377-2499

**SOCIO-PEDAGOGICAL FEATURES OF FORMING RESPECT AND LOVE
FOR THE HOMELAND AND A HIGH SPIRIT OF PATRIOTISM IN THE
MINDS OF YOUNGSTERS**

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar ongida vatanga bo'lgan mehr-muhabbat va yuksak vatanparvarlik ruhini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy metodologik asoslari, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni hamda yoshlarning ma'nnaviy-axloqiy kamolotidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ilg'or pedagogik yondashuvlarning tutgan o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada yoshlar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, tarbiya vositalari va amaliy uslublar asosida takliflar berilgan.

Annotation

This article analyzes the socio-pedagogical features of the formation of love for the homeland and a high spirit of patriotism in the minds of young people. The article highlights the modern methodological foundations of patriotic education, its role in the educational process and its importance in the spiritual and moral

development of young people. It also analyzes the role of national values, historical heritage and advanced pedagogical approaches in the formation of military-patriotic ideas on a scientific basis. The article provides suggestions based on factors, educational tools and practical methods that have a positive impact on the minds of young people.

Kalit so'zlar

yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, mehr-muhabbat, ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar, ma'naviy kamolot, milliy qadriyatlar, tarbiya metodlari, fuqarolik pozitsiyasi, harbiy-vatanparvarlik, ijtimoiy ong.

Keywords

youth education, patriotism, love, socio-pedagogical characteristics, spiritual maturity, national values, educational methods, civic position, military-patriotism, social consciousness.

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida misli ko'rilmagan o'zgarishlar va islohotlar olib borilmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olmoqda, bu jarayonning bosh ijrochisi esa insonning o'zi hisoblanadi. Bugungi kunda insonning vatanparvar va yetuk mutaxassis bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirish mamlakatimiz har bir fuqarosining muqaddas burchidir. Zero, «bugungi global makonda, qarama-qarshiliklar, inson, ayniqsa, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun kurash nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o'rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas. Shunday ekan, yoshlarda yuksak vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash orqali ularda buzg'unchi kuchlarga qarshi tura olish ko'nikmalarini ham shakllantirish vazifalari yuzaga kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Yoshlar tarbiyasida, ayniqsa ularning ongida vatanga bo'lgan mehr-muhabbat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalasi o'zbek pedagogikasida alohida o'rinnegallaydi. Bu borada bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xususan, Q. Yo'ldoshev o'z tadqiqotlarida yoshlar ongini shakllantirishda ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari va oila muhitining ta'siri haqida to'xtalgan. U yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy-pedagogik yondashuv muhimligini ta'kidlaydi.

N. Toshxo'jayev esa vatanparvarlik tarbiyasini tarixiy ong va milliy identifikatsiya bilan bog'lab o'rghanadi. U yoshlar tarixni chuqur o'rghanmagan taqdirda, vatanparvarlik faqat shior bo'lib qolishini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, S. Jo'rayev va D. Mamarasulov kabi olimlar yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'anaviy tarbiya vositalarining o'rniga alohida e'tibor qaratgan.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqotda ijtimoiy-pedagogik yondashuv asos qilib olindi. Nazariy manbalar tahlili bilan bir qatorda, amaliy kuzatuv, so'rovnama va tahlil metodlaridan foydalanildi. Shu orqali yoshlar orasida vatanparvarlik darajasi, uning shakllanish omillari hamda mavjud muammolar aniqlab chiqildi.

O'quvchi-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil va tadqiq etishdan avval harbiy vatanparvarlik kategoriyasining mazmun-mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Harbiy qomusiy lug'atlarda harbiy vatanparvarlikning mazmuni «yurtga sodiqlik, Vatanga muhabbat, el manfaatlariga xizmat va mamlakatni dushmanidan himoya qilish» deb talqin etiladi.Umuman olganda, harbiy vatanparvarlikning mazmun-mohiyati shu ta'rifda mujassam bo'lganga o'xshaydi. Biroq fuqaro vatanparvarligi – huquqiy madaniyat va qonunga itoatkorlik haqidagi bilimlar tizimi bo'lib, jamiyat va davlatdagi siyosiy-huquqiy hodisa-jarayonlarning yangilagini baholash, fuqarolik pozitsiyasiga egalik, xalqiga xizmatda doimo tayyor turish va konstitutsiyaviy burchini bajarishdan iborat»ligi ta'kidlanadi.

Vatanning kuch-qudrati, sog'lomligi, yengilmagligi, e'tiqodi, jismoniy salomatligi yoshlarimizning harbiy vatanparvarligi bilan bog'liqdir. Amir Temur bobomiz armiya tuzishda masalaning bu tomoniga katta e'tibor qaratganlar: «Cherik (qo'shin, harbiy tuzilma) tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan – yigitning kuch-quvvatiga; ikkinchidan – qilichni o'ynata olishiga; uchinchidan – aql-zakovati-yu, kamolotiga. Shu uch fazilat jamuljam bo'lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negakim, kuch-qudratli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azob-uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladigan kishi raqibini mag'lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmog'i mumkin»

O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy me'rosida harbiy vatanparvarlik g'oyalarining ahamiyatini tadqiq etgan olim K.Usmonov tahlillariga ko'ra, harbiy vatanparvarlik yuksak axloqiylikni namoyon etadigan tuyg'u bo'lib, uning mazmuni vatanga mehr qo'yish, vatanni himoya qilish, uning havfsizligi va yaxlitligini ta'minlashga bevosita va bilvosita mas'ullik orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun ham chinakam harbiy vatanparvarlik o'zidan oilani, oiladan Vatanni, Vatandan

insoniyatni ustun qo'yishi talab etadi. Ushbu olimlar fazilatning muhim jihat shundaki, undagi hissiyotlar tor vatanparvarlik doirasiga sig'maydi, undan «chetga chiqadi». Harbiy vatanparvarlik faqat Vatanni sevish yoki yaxshi ko'rish bilan cheklanmaydi, balki bor kuchi va aql-idrokini Vatanni himoya qilish bilan bog'liq muammolarni hal etishga safarbar qilishda namoyon bo'ladi.

O'quvchi-yoshlarda harbiy vatanparvarlik ruhini shakllantirish uchun badiiy ta'sir vositasidan, jahoning durdona asarlaridan ham unumli foydalanish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Misol uchun, vatanparvarlikni yuksak axloqiy fazilat sifatida tavsiflay olgan Rasul Hamzatov asarlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Avar xalqining mashhur shoiri Rasul Hamzatov «Mening Dog'istonim» asarida Vatan tuyg'usi, millat ravnaqi, vatanparvarlik haqida ibratli hikoya qiladi. «Odamlarni ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga da'vat bilan shoir o'z yurtiga murojaat etadi: «Mana men huzuringga otam kamchiliklarini aytgan olamdan keldim. Men ham bu dunyoda kezib juda ko'p ajib narsalarni ko'rdim. Qaysi biriga qarashni bilmay ko'zlarim o'ynadi. Nigohimni bitta chiroqli ehromdan uzganimda undan ham chiroqli ehromga ko'zim tushdi, go'zal chehralarga qaradim, lekin shuni aniq bilardim, ular qanchalik jozibali bo'lmasin, ertaga ulardan ham jozibaliroqlarini uchrataman... Dunyoning cheki-chegarasi yo'q ekan. Meni Hindistonning ibodatxonalar, Misrning ehromlari, Italiyaning qadim yodgorliklari kechirsinlar, meni Amerika shoh ko'chalari, Parij xiyobonlari, Angliya bog'lari, Shveytsariya tog'lari ham kechirsinlar, sizlarni qanchalik yoqtirmay yuragim bir maromda urdi, boshim aylanib qoladigan darajada aqli hushimdan ayrilmadim. Hozir esa, qoyalar etagida joylashgan yetmishta xonadonni ko'rishim bilan yuragim o'ynab ketdi, hatto ko'krak qafasimga sig'may qovurg'alarimga botyapti. Xuddi kasal yoki mast bo'lgan odamday ko'z oldim qorong'ilashyapti, boshim aylanyapti! Nahotki, shu kichkinagina ovulim Venetsiyadan, Qohiradan yoki Kalkuttadan go'zal bo'lsa? Nahotki, bir bog' o'tin quchoqlab ketayotgan avar ayoli baland bo'yli, skandinaviyalik oppoq qizlardan go'zal bo'lsa? Men yechinib toshlarga urilib tomchilar sochayotgan sharshara tagida turaman. Oqim toshdan-toshga urilib sakkizga bo'linadi, keyin qo'shilib boshimga, yelkamga, qo'llarimga quyiladi, qanday maza! Bu rohatijon muzday suv oldida Parijning «Qirol saroyi» mehmonxonasi vannasidagi plastmassa sepkichdan oqadigan ilmiliq suv nima bo'libdi? Buloqdan otilayotgan suv kun bo'yi quyosh nuridan qizigan toshda iliysi. Tog'dagi bu toshli vanna oldida Londonning «Metropol» mehmonxonasidagi moviy vanna oddiy tog'ora xolos». Bundan tashqari vatanparvarlik yuksak darajada tarannum etilgan asarlar bilan tanishtirish g'am o'quvchilarda yuksak vatanparvarlik sifatini, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Biyuk mutafakkir olimlarimizning vatanparvarlik to'g'risidagi g'oyalari, o'gitlarini yoshlarga singdirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'rifatparvar ajdodimiz Alixonto'ra Sog'uniy «Keraklicha din ilmini o'qish hammaga farz bo'lganidek, Vatanini va millatini saqlash uchun zamonaviy fan ilmini o'qib bilishlik ham farzdir... Shu sababdan tushungan Vatan o'g'lon qizlarimiz zamonaviy har ilm-hunarni asosi bilan yaxshi tushunib, imkoniyat boricha bilib o'zlashtirishga boshqalardan ortiqroq kirishmoqlari lozimdur»

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, harbiy vatanparvarlik tarbiyasidagi kompleks yondashuv maqsadga yo'naltirilganlik va tabaqali yondashuvni taqozo etadi. Bunda vatanparvarlik komil insonni tarbiyalashga qaratilgan barcha tadbirlarning bosh maqsadi, ta'lim-tarbiya ishlarining ibtidosi bo'lib xizmat qilishi zarurligi tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usining kuchliligi ularning ma'naviy kamolotga bo'lgan ehtiyojlarini mustahkamligini va barqarorligini ta'minlashi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek «Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining yoshlarda yuksak vatanparvarlik ongi, o'z vataniga sodiqlik hissi, fuqarolik burchini bajarishga, uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorgarlikni shakllantirish bo'yicha rejali, tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va uyg'unlashgan faoliyatdir». Biroq harbiy vatanparvarlikni tarbiya subyektlari nuqtai nazaridan yanada kengroq talqin etish mumkin. Zero, bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bevosita qurolli kuchlar tizimi, harbiy soha, davlat organlari va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshsada, oila, mahalla va ta'lim muassasasi harbiy vatanparvarlik tarbiyasini bilvosita amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi.

Bugungi kunda yoshlarda harbiy vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishdagi kuchli psixologik ta'sir ularning kuchli va mard ajdoddari borligiga ishontirish va ularda tarixiy xotirani shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Misol uchun, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug'lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog'liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatları aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Zero, «shonli tariximizda Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk sarkardalarimizning oz sonli qo'shin bilan dushmanning katta lashkari ustidan g'alaba qozongani haqida misollar ko'p. Albatta, ularning harbiy salohiyati, jang maydonida qo'llagan taktika va strategiyalari - bu alohida mazvzu. Lekin bu ulug' sarkardalarning o'z askarlari qalbiga chinakam vatanparvarlikni, jangovor ruhini singdira olgani biz uchun bugun ham ibratlidir».

O'quvchi-yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash bevosita jamiyatda ma'naviy islohotlar bilan uyg'unlikda olib boriladigan jarayondir. Ayniqsa, yoshlarda ham, harbiy xizmatchilarda ham Vatanga muhabbat tuyg'usini yuksaltirish, Vatanini himoya qilish fazilatlarini barqarorlashtirish axloqiy tarbiya vositasida amalga oshadi. Chunki «islohot harbiy xizmatchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni, professional tayyorgarligini va qayta tayyorlashni tashkil etishning bugungi tizimini qayta ko'rib chiqishni ko'zda tutadi. Bu jangchilarimizda Vatanga muhabbat va sadoqatni, yuksak ma'naviy fazilatlar va mustahkam irodani tarbiyalashga, professionalizmni, a'lo jangovar tayyorgarlikni ta'minlashga qaratilishi lozim».

XULOSA VA NATIJALAR

Yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlash ishlarining tubdan o'zgarishi harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shuningdek, tashkiliy-uslubiy jihatlardan to'liq foydalanishni taqozo etadi. Buning uchun, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, an'anaviy tarbiya shakllarini tanlash va mustaxkamlash zarur. Hozirgi sharoitda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi vazifalarini to'la amalga oshira oladigan yangi shakl va uslublarni izlash va ularni hayotga tadbiq etish lozim. Bunda asosiy e'tiborni harbiy vatanparvarlik tarbiyasining shakl va uslublarini tashkiliy jihatdan ta'sirchanligiga yo'naltirilganligiga qaratish zarur. Zero, «kim Vatansiz yashash mumkinligiga ishonsa - u diyonatsizdir. O'z yurtidan yuz o'girganlar, eng avvalo, o'z vijdonlaridan yuz o'girgan bo'ladilar.

O'quvchi-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shundan iboratki, o'quvchi-yoshlarda vatan himoyasiga shaylik, e'tiqod, tuyg'u, qat'iyatlilik, mustahkam iroda, jismoniy chiniqqanlik singari shaxsni butun bir sifatlari majmuasini namoyon qiladi. Bu sifatlarning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular birgalikda Vatan himoyasiga shaylikning yaxlit bir tuzilishini hosil qiladi, va bu insonning asosiy sifatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni Vatan himoyasi va harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma, malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotdagi holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarda vatanparvarlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik tayyorgarlikni ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Jamiyatda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat pedagogik-psixologik asoslarga, balki ijtimoiy,

iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga bog'liq ekanligiga e'tibor berish zarur. Bu borada harbiy vatanparvarlikning ilmiy-nazariy asoslarini o'rghanish bilan bog'liq pedagogik tadqiqotlar ko'lagini kengaytirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. **Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.** - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B. 12-35.
2. Jo'raev M. **Vatanparvarlik - muqaddas tuyg'u.** - Toshkent: O'qituvchi, 2015. - B. 45-78.
3. Hasanboyev B. **Ijtimoiy pedagogika.** - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. - B. 60-95.
4. Raxmonov S., Usmonova N. **Yoshlar tarbiyasi va ma'naviy rivojlanish.** - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. - B. 88-101.
5. Egamberdiyeva D. **O'zbek yoshlari va vatanparvarlik tarbiyasi.** - Samarqand: Zarafshon, 2021. - B. 21-44.
6. G'afurov N. **Milliy qadriyatlar asosida tarbiya.** - Toshkent: Ma'naviyat, 2017. - B. 30-67.
7. Mamatqulov Q. **Zamonaviy pedagogik texnologiyalar.** - Andijon: Andijon nashriyoti, 2022. - B. 105-120.
8. Qurbonov T. **Fuqarolik jamiyati va yoshlar.** - Toshkent: Universitet, 2018. - B. 56-79.
9. Yusupov A. **Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi.** - Toshkent: Akademnashr, 2016. - B. 15-39.
10. Mirzayev S. **Yoshlar siyosati: nazariya va amaliyot.** - Toshkent: Innovatsiya, 2023. - B. 70-98.